



OPPORTUNITIES FOR TOURISM IN THE ZAMIN REGION AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT

Otabek Solijonov

Intern-researcher of the "Applied Ethnology" laboratory

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: solijonovotabek997@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: tourist zone, ecotourism, health resorts, nature reserves, ski resorts, recreation.

Received: 17.09.24

Accepted: 19.09.24

Published: 21.09.24

Abstract: This article provides information on ways to develop tourism in the Zomin area and its impact on the social, economic life of the local population and the prospects for the development of tourism in the area.

ZOMIN MINTAQASIDA TURIZM IMKONIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Otabek Solijonov

"Amaliy etnologiya" laboratoriysi stajyor-tadqiqotchisi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: solijonovotabek997@gmail.com

МАҚОЛА HAQIDA

Kalit so'zlar: turistik zona, ekoturizm, sog'lomlashtirish maskanlari, tabiat qo'riqxonalari, chang'i kurortlari, rekreatsiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zomin hududida turizm rivojlantirish yo'llari va uning mahalliy aholi ijtimoiy, iqtisodiy hayotiga ta'siri va bu hududda turizmni rivojlantirish istiqbollari haqida ma'lumotlar berilgan.

ВОЗМОЖНОСТИ ТУРИЗМА В ЗОМИНСКОМ РАЙОНЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО РАЗВИТИЯ

Отабек Солиджонов

Стажер-исследователь лаборатории «Прикладная этнология»

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: solijonovotabek997@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: туристическая зона, экотуризм, санатории, заповедники, горнолыжные курорты, отдых.

Аннотация: В данной статье представлена информация о путях развития туризма в Зоминском районе и его влиянии на социально-экономическую жизнь местного населения, а также о перспективах развития туризма в этом регионе.

KIRISH

Turizm sohasi davlatlarning rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ijobjiy ta'sir ko'rsatishdan tashqari madaniyatlar almashinuvi jarayonlarini ham turizm sanoatisiz tasavvur etish qiyin, Shuning uchun, bugungi kunda respublikamizda barcha sohalar singari mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Turizm - iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur. Buni davrning o‘zi taqozo etmoqda”, – deb aytgan so‘zları mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish naqadar dolzarb masala bo‘lib qolayotganidan darak berib turibdi [1]. O‘zbekiston turizm sohasida Zomin shahrining o‘rnı beqiyos.

Tog‘ tizmalari butun dunyoda sayyoohlar oqimini doimiy ravishda jalb qilib turuvchi ajoyib hududlardir, jumladan, O‘zbekistonda joylashgan tog‘ tizmalari ham yilning har faslida nafaqat mahalliy, balki chet ellik sayyoohlarni ham o‘zining go‘zalligi bilan birga sayohat qilish uchun qulay bo‘lgan mintaqalardir. Yurtimizda joylashgan shunday hududlardan biri Zomin tog‘laridir.

Zomin tumanining ajoyib tabiiy landshaftlari uni ekoturizm uchun jozibali manzilga aylantiradi. Zomin tumanining bir nechta o‘ziga jalb qiladigan jihatlari mavjud, Zomin tog‘lari mintaqadagi tog‘larning eng go‘zallaridan biri sanaladi – ularning 1700-3000 metr balandlikdagi bepayon tog‘ yonbag‘rilari yuzlab gektar maydonlarda ignabargli va archa o‘rmonlari bilan gavjum, havosi esa daraxt smolasining xushbo‘y hidiga ega. Markaziy Osiyoning boshqa hech bir mintaqasida xuddi shunday tabiiy boylik mavjud emas, shuning uchun Zominni “Markaziy Osiyoning Shveytsariyasi” deb atashadi [2].

Zomin – O‘zbekistonning Jizzax viloyatida joylashgan tuman. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan (1962-yil 24-dekabrda Jizzax tumani bilan birlashtirilgan, 1964-yil 31-dekabrda qayta tuzilgan). Shimolda viloyatning Zarbdor tumani, g‘arbda Baxmal va Jizzax tumanlari, sharqda, shimoliy-sharqda Yangiobod tumani, janubiy-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 2.87 km.kv.ni tashkil etib, unda 165100 kishi istiqomat qiladi (2020-yil). 93% dan ortiq aholi o‘zbeklardir. Bu yerda qirg‘izlar, rus, tatar, tojik va boshqa millat vakillari

ham yashaydi. Aholi zichligi har km.kvga 62 nafar kishi to‘g‘ri keladi. Uning tarkibida 2 ta shaharcha (Dashtobod, Zomin), 11 ta qishloq fuqarolar yig‘ini bor.

ASOSIY QISM

Umuman turizm sohasi hamma davrlarda ham madaniyatlar almashinuvining muhim vositasi bo‘lgan. Xususan, Marko Polo [2] va Ibn Battuta [3] kabi tadqiqotchilarning sayohatnomalari ham uzoq mamlakatlar va madaniyatlar haqida tushuncha berib, kelajakdagi madaniyatlararo muloqotlar uchun zamin yaratdi.

Zomin tumaning tabiatni, iqlimi iqtisodiy imkoniyatlari bo‘yicha ko‘plab izlanishlar olib borilgan, Zomindagi tarixiy hududlar, muqaddas qadamjolar tarixiga atalagan ko‘plab monografiya va ilmiy ishlar qilingan. Xususan, Mamatqulov M., Oripov K. o‘zlarining O‘zbekiston g‘orlari nomli tadqiqotida Zomin tumanining iqlimi qishi sovuq va yozi issiq kontinental iqlimi, tog‘lari va g’orlari xususiyatlariga to’xtalib o’tilgan.

Sangirova M. Zominsuv havzasida dam olish maskanlarini tashkil qilish va turistlarga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari mavzusida adabiyot yaratib, Zomin shifobaxsh muolajalari bilan mashhur sog‘lomlashtirish maskanlari bilan boyligi. Tog‘ning toza havosi, mineral buloqlar va osoyishta muhit uni dam olish va tiklanish uchun ideal joy ekanligini takidlab o’tgan.

Ilmiy maqolada kuzatuv, tarixiy tahlil, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Zomin Pomir-Oloy tog‘ tizimining Turkiston tizmasining shimoli-g‘arbiy qismiga mansub bo‘lib, asosan Tojikiston hududini egallaydi. O‘zbekistonda ular Jizzax viloyatida, xuddi shunday nomdagi shahardan janubroqda joylashgan. Eng baland joyi Shakartog‘da bo‘lib, uning balandligi 4000 metrni tashkil qiladi.

Tabiiy xususiyatlariga ko‘ra ular Nurota va Chimyon tog‘laridan dam olish uchun qulay bo‘lgan o‘ziga xos iqlim sharoiti bilan ajralib turadi. Bir necha o‘n yillar davomida bu yerda Zomin deb nomlangan mamlakatdagi eng mashhur sanatoriya (tibbiy xizmat ko‘rsatadigan dam olish maskani) joylashgan. U asab va nafas olish tizimlarini davolashga ixtisoslashgan. Hatto uning hududida yurish ham o‘tkir respirator kasalliklar uchun samarali profilaktika chorasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Zomin tog‘lari qo‘riqlanadigan hudud hisoblanadi. Ular ikki qismga bo‘lingan: Zomin davlat qo‘riqxonasi va Zomin Milliy bog‘i.

“Zomin milliy bog‘i” va Zomin davlat qo‘riqxonasi O‘zbekistondagi eng qadimiy tabiatni muhofaza qilish obyekti sanalib, 1926-yil “Gurulash” nomi bilan tashkil etilgan va u Turkiston chizig‘ining shimoliy qismida joylashgan. 1976- yilda archa massivlarini saqlash maqsadida qayta tashkil etilgan. Ilgari bu bog‘ “Xalq bog‘i” deb nomlangan. Umumiy maydoni 24000 hektarni tashkil etib, shundan 16.7 min hektarini archazorlar tashkil etadi. Bu archazorlarning

2500 metr balandlikdagi qismida Turkiston archasi, pastroqda yarim sharsimon archa tog‘ etaklarida esa Zarafshon turidagi noyob archa turlari o‘sadi. Zomin tog‘i florasingning 18 ta turi Xalqaro darajadagi Qizil ro‘yxatga kiritilgan. O‘simliklarning umumiy soni 700 dan ortiq. Hayvonot dunyosi o‘simliklar dunyosi bilan bir xil darajada xilma-xildir. Bu yerda bo‘rilar, Sibir echkilari, To‘lay quyonlari, kirpilar, suvsarlar va dasht qushlari ko‘p uchraydi.

Chegaraning yaqinligi sayyoqlik imkoniyatlarini cheklaydi, bir nechta hududlarga kirish uchun ruxsatnomalar oldindan tayyorlanishi kerak. Pishag‘or hududidagi Zomin tog‘ etaklarida ekoturizmdan tashqari muqaddas joylar, shu jumladan, Xujay Serob-Ota, ekskursiya va kognitiv komponentni o‘ziga jalb etuvchi g‘or va daralar ham mavjud.

Zomin milliy bog‘i O‘zbekistonning sharqidagi Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi 156 km.kv qo‘riqlanadigan tog‘ landshaftlarini o‘z ichiga oladi. U Aldashmansoy, Boyqo‘ng‘ir, Gurulash va Kulsoy daryolari vodiylarini o‘z ichiga oladi, bu esa quruq iqlim sharoitida mahalliy o‘simlik va hayvonot dunyosini yetaricha darajada suv bilan ta’minlaydi. Shuningdek, qo‘riqxona kirish eshigi oldida suv ombori ham mavjud. Zomin milliy qo‘riqxonasining eng past qismlari Gurulash vodiysida joylash taxminan 1700 metr. Qo‘riqxonaning nuqtasi Gurulash cho‘qqisi bo‘lib, 3751 metr. Bu mintaqaning noyob tabiiy muhitini asrab-avaylash zarurligi aks ettiruvchi O‘zbekistondagi eng qadimiyligi qo‘riqlanadigan hududlardan biriga aylantirgan. Qo‘riqxonaning tashkil etilishining asosiy maqsadi g‘arbiy Tyanshan tog‘larining xilma-xil ekotizimlarini, jumladan, uning boy flora va faunasini himoya qilish edi. Bu yerda sayyoqlar piyoda sayr qilish, trekking lager va piknik kabi faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin. Sayyoqliknini yangi boshlaganlar va tajribali sayyoqlar uchun ham bir nechta qulay yo‘llar mavjud.

Zomin birinchi navbatda o‘zining tabiiy go‘zalligi bilan mashhur bo‘lsa-da, u boy tarixga ega. Zomin hududlari Markaziy Osiyoning odamlar istiqomat qilgan qadimiy hududlaridan biri. Ustrushona sulolasi Sug‘d, Baqtriy, Farg‘ona va Choch kabi davlatlar orasida ushbu hududni boshqarib kelgan. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan turar-joylarning Yoshi 2500 ming yildan ortadi va qadimiyligi jihatidan Panjikent va Istararovshan shaharlaridan unchalik katta farq qilmaydi. O‘rta asrlarda Jizzax viloyati hududidan, xususan, Zominda ham Buyuk ipak yo‘li o‘tgan. 1868-yilda Buxoro amirligining sharqiy hududlari Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan so‘ng Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo mulklari tarkibida ma’muriy birlik – Zarafshon okrugi tashkil topdi.

Bu okrug tarkibiga Samarqand, Urgut, Panjikent, Kattaqo‘rg‘on, Chelak va Payshanba shaharlari hamda ko‘plab qishloqlar kirgan. Zomin tumani Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kirgan. 1887-yil 1-yanvarda Zarafshon okrugi tugatilib, uning hududi yangi tashkil

etilgan Samarqand viloyati tarkibiga kiritildi. Bu viloyat 4 ta tumanga bo‘lingan: Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Samarqand va Xo‘jand. Hozirgi Zomin tumani hududi Xo‘jand tumani tarkibida bo‘lgan. 1918-yil 30-aprelda Samarqand viloyati hududi Turkiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasi tarkibiga kirdi, 1924-yil 14-oktabrda SSSR tarkibida O‘rtta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishi bo‘lib o‘tdi. 1926-yil 29-sentabrda O‘zbekiston SSR Jizzax viloyati tarkibida Zomin tumani tashkil etilgan. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan (1962-yil 24-dekabrdagi Jizzax tumani bilan birlashtirilgan, 1964-yil 31-dekabrdagi qayta tuzilgan).

Mintaqada ming yillar davomida aholi yashaydi va tashrif buyuruvchilar qadimiy aholi punktlari va tarixiy joylar bilan tanishishlari mumkin. Undan tashqari sayyoohlari hududda mahalliy qishloqlarda an’anaviy o‘zbek madaniyati bilan tanishishlari, jumladan, mahalliy taomlardan tatib ko‘rishlari va mintaqaning urf-odatlari va an’analari bilan tanishishlari mumkin.

Zomin sanatoriyasi barcha tomonidan tog‘lar bilan o‘ralgan hududdir. Juda ko‘p archa va noyob daraxtlar, shu bilan birga, tog‘lardan oqib tushadigan bir qancha zilol suvli ariqlar hamda buлоqlar O‘riklisoy darasining irmoqlari bilan qoplangan sanatoriya dengiz sathidan 2000 metr balandlikda joylashgan.

1970-yilda sovet tipida qurilgan inshoot o‘pka kasalliklari mavjud bemorlar va go‘zal arxitektura namunalari ixlosmandlari uchun tashrif buyurish uchun juda qulay joy hisoblanadi. Bu joy o‘rmon tog‘ archalaridan chiqayotgan musaffo havo tufayli o‘zining shifobaxshligi bilan alohida mashhur. Zomin sanatoriyasi hududi asal sotuvchilari va qo‘zichoq go‘shtidan tayyorlangan tandirlarni sotuvchi kafe va oshxonalari bilan to‘la. Qish fasilda qishki o‘yinlar uchun ham kichik bir maxsus joy ham sanatoriya yaqinida joylashgan.

Zomin sanatoriyasi zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, jumladan, elektrokardiogramma, ultratovush qurilmalari va stomatologik kasalliklar uchun jihozlangan alohida tibbiy bo‘lim ham mavjud. U yerda yana 2 ta suzish havzasi, sauna, massaj xizmatlari, natriy-xlor bilan davolash, nafas olish uskunalarini ham bor.

Zomin suv ombori Zomin sanatoriyasiga kirishdan oldin, shimoliy yo‘lda Zomin suv ombori o‘zining moviy rangdagi tiniq suvi bilan hududga qo‘shimcha go‘zallik berib turibdi. Bu joy dam oluvchilar va tabiat qo‘ynida suzishni xush ko‘rvuchilar uchun juda maqbul joy sanaladi. To‘g‘on ostida go‘zal o‘tloqlar bilan archalar yastanib yotadi. Agar mashinada yoki yurib tik to‘g‘on ustiga chiqilsa suv omborining go‘zal ko‘rinishidan rohatlanish mumkin.

“Sherbulog” suv havzasi ham Zomin sanatoriyasi yaqinida joylashgan bo‘lib, bu joyning kalsiy bilan tabiiy boyitilgan suvlari juda mashhur.

“Suffa” Xalqaro Radio astronomiya observatoriysi Suffa platosining eng baland yerida, Zomin sanatoriyasidan 10 kilometr g‘arbda va Toshkent shahridan 200 kilometr janubda dengiz

sathidan 2500 metr balandlikda joylashgan. Uning qurilishi o‘tgan asrning 80 yillaridan boshlangan, Sobiq Sovet ittifoqining parchalanishi tufayli inshoot qurilishi yakuniga yetmagan. 2008-yildan buyon qurilish millimetrlı to‘lqinli diapozonni kuzatish uchun modernizatsiya qilingan uskunalar bilan qayta tiklandi.

Peshag‘or g‘ori Peshag‘or darasining chuqur tog‘ vodiysida joylashgan va bu joy Zomin tumani hududiga kiradi, lekin Zomin bog‘i tarkibiga kirmaydi.

Ushbu g‘ordan qadimiy primitiv odam tiplari tomonidan ishlatilgan topilmalar hamda qadimiy petrogliflar topilganidan so‘ng so‘ng ushbu manzil tarixga qiziquvchi sayyoohlar orasida mashhur bo‘lib bormoqda [4].

Sherilak sharsharasi Zomin sanatoriyasining yaqinida O‘riklisoy darasining boshida joylashgan. Kuchli suv oqimi sobiq davlat arbobi Sh. Rashidovning uyidan 100 metr balandlikda joylashgan ariqqa quyiladi.

Ma‘rifatli masjidi Zomin qishlog‘ida, Zomin milliy bog‘ining shimoliy qismida joylashgan. 2018-yilda XV asrga tegishli bo‘lgan ushbu masjid qayta tiklandi, bugun masjid kengaytirilgan va 6 mingga yaqin ziyoratchilarni qabul qila oladi. Bu masjidda yana qadimiy tut daraxti ham mayjud, uning Yoshi taxminan 1000 yil deb ishoniladi.

Zomin mahalliy an‘analar muzeyida XVII – XVIII asrlarda kundalik hayotda ishlatilgan keramika buyumlari, tangalar, javohirlar, uy ro‘zg‘or buyumlari, ayollarning milliy liboslari kabi jami 4 mingga yaqin narsalar ko‘rgazmaga qo‘yilgan.

“Boboyong‘oq” daraxti Zomin milliy bog‘idagi juda mashhur daraxt hisoblanadi. Uning yoshi 700 yil deb ishoniladi. Uning balandligi 20 metr, shoxlari kengligi 28 metr, tanasining qalinligi esa 2.7 metrni tashkil etadi.

Zominsuv havzasiga sayyoohlarni jalb qiladigan joziba - faqatgina tabiat emas, balki o‘ziga xos bo‘lgan gastroturizmning mavjudligidir. Bu yerda ayrim taomlar san’at darajasida tayyorlanib, ularning mazasini shahar restoranlarida ham uchratish qiyindir. Qo‘y go‘shtidan tayyorlanadigan tandir, yaxna va barra kaboblar, qolaversa qozon patir va uning saryog‘i, boshqa hududlarda tayyorlanadigan shunday taomlardan o‘ziga xos ta’mi bilan ajralib turadi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Zominda taom tayyorlash sirlarini uch, to‘rt avloddan beri bir-biriga o‘rgatib kelayotgan mashhur oilalar ham bor. Zomin tandir go‘shti mazasining siri shundaki, taom tayyorlashda ishlatiladigan go‘sht, albatta tog‘ qo‘ynida boqilgan qo‘y yoki sarka go‘shti bo‘lishi kerak. Shuningdek, hidli archa va tog‘ zirovorlari ham tandir go‘shtiga o‘ziga xos ta’m va maza beradi.

Bu yerda gastroturizmning o‘ziga xos yana bir ekzotik turi: xo‘randalar tomonidan baliq tutish va tutilgan baliqlardan oshpazlar tomonidan turli xil taomlar tayyorlab berish xizmatlari ham bor [5].

Zomin Toshkent shahridan 200 km va Samarqand shahridan 150 km uzoqlikda joylashgan. U yerga ushbu shaharlardan mahalliy avtobuslar va mikroavtobuslar, samalyot yoki shaxsiy avtomobil yoki taksilar borish mumkin. Eng yaqin yirik shahar Jizzax bo‘lib, u yerdan Zominga taksi yoki mahalliy transportda borish mumkin.

Hududda turar joyning turli xil variantlari mavjud, jumladan 10 ga yaqin oddiy mehmonxonalardan tortib qulayroq mehmonxonalar va dam olish maskanlarigacha tun-u kun sayyoohlар xizmatida.

XULOSA

Zominda turizm rivojlanib borar ekan, tabiiy muhitni muhofaza qilish va kelajak avlodlar uchun mintaqa go‘zalligini saqlab qolish uchun barqaror turizm amaliyatiga har qachongidan ko‘ra ko‘proq katta e’tibor qaratish lozim.

Zomin hududi tog‘li hududda joylashganligi sababli bu yerdagi kuz va bahor fasllarida tabiat hodisalaridan sayyoohlarni doimiy ogohlantirish va xavsizlik choralarini yanada kuchaytirish lozim, chunki xavfsiz bo‘lgan hudud sayyoohlар uchun eng muhim masaladir. Bundan tashqari, Zomin turizm zonasining sayyoohlarni o‘ziga jalb qiluvchi chiroyli tabiat hududlari qo‘shni Tojikiston Respublikasiga bevosita tutashganligi sababli bu yerda turizmni rivojlantirish birmuncha muammolarga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bugungi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan olib borilayotgan “yaxshi qo‘shnichilik” siyosati orqali Tojikiston Respublikasi bilan hamkorlikda shu hududda turizmni rivojlantirish sohasidagi har qanday amaliy ishlar ikki davlat uchun ham siyosiy-iqtisodiy tomonlama foyda bo‘lgan bo‘lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1]. O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g“risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 05.01.2019.
- [2]. "Marco Polo", *The New Encyclopædia Britannica Macropedia*, vol. 9 (15 ed.), [Encyclopædia Britannica, Inc](#), 2002, [ISBN 978-0-85229-787-2](#)
- [3]. [Dunn, Ross E. \(2005\), The Adventures of Ibn Battuta, University of California Press, ISBN 978-0-520-24385-9](#). First published in 1986, [ISBN 0-520-05771-6](#).
- [4]. Mamatqulov M., Oripov K. O‘zbekiston g‘orlari. – T.: 1978. 55-bet.
- [5]. Sangirova M. Zominsuv havzasida dam olish maskanlarini tashkil qilish va turistlarga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari. Journal of geography and natural resources. Jizzax, 2022. 35-bet.